

QORA ANDIZ (Devyasil visokiy — Inula he1etit I) NING DORIVOR HUSUSIYATLAR

Qurbanova Latofat Mamadiyrovna

Ibrohimova Zamira Ismat Qizi

Jizzax Politehnika Institute

+998915688007

Annotatsiya: Xalq tabobatida o'n ikki barmoq ichak yarasi kasalligini davolash uchun ishlatililib, qora andiz preparatlari va efir moyi yallig'lanishga qarshi, antiseptik va gijja haydovchi ta'sirga ega vosita sifatida qo'llanilishi yoritilgan.

Kalit so'z: saponinlar, alkaloidlar, smola, bo'yoq, shilliq, balg'am ko'chiruvchi allantoni, sariq andiz, efir moyi, ellipssimon

Annotation: In folk medicine, twelve fingers are used to treat peptic ulcer disease, and the use of black pepper and essential oil as an anti-inflammatory, antiseptic and anti-worm agent.

Keywords: saponins, alkaloids, tar, dye, mucus, expectorant allantoni, yellow andiz, essential oil, ellipsoidal



Asradoshlar (murakkabguldoshlar)-Aseraseaye (Sompositaye) oilasiga mansub, bo'yi 100-80 sm keladigan yirik ko'p yillik o't o'siml i k. Poyasi bitta yoki bir nechta, tik o'sadi, yuqori qismi shoxlangan. Ildiz oldi barglari yirik, uzun bandli, ellipssimon yoki cho'ziq tuxumsimon va o'tkir uchli bo'ladi. Poyasidagi barglari maydaroq, cho'ziq tuxumsimon bo'lib, bandi yordamida (paski qismidagilari) yoki bandsiz (poyasining yuqori qismidagilari) poya va shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Hamma barglari sertuk (ayniqsa paski tomoni) va tishsimon qirrali. Tilla sariq gullari poyasi bilan shoxchalari uchida qalqonsimon yoki shingilsimon to'pgul hosil qiluvchi savatchalarga joylashgan. Mevasi-to'rt qirrali, cho'zinchoq pisa. Iyul oyidan boshlab sentyabrgacha gullaydi, mevasi avgust-oktyabrda yetiladi.

Geografik tarqalishiga keladigan bo'lsak, Zomin tog'larining etaklaridan to tog'larining o'rta qismigacha bo'lgan to'qayzorlarda daryo vodiylarida, bo'talar orasida, o'tloqlarda, o'rmonlardagi ochiq, joylarda va boshqa nam yerlarda o'sadi.

Qo'llaniladigan qismlari asosan ildizpoyasi bilan ildizi. Ular kuzda mevasi pishib to'kilgandan so'ng yoki erta bahorda kovlab olinadi, tuproq va loydan suv bilan yuvib tozalanadi, yo'g'onlarini maydalab, ochiq havoda- quyoshda quritiladi.

Kimyoviy tarkibiga ko'ra yer ustki qismi tarkibida 1-3 % efir moyi, 44 % gacha inulin va boshqa uglevodlar, saponinlar, 0,16 % alkaloidlar, smola, achchiq, bo'yoq, shilliq va boshqa moddalar bor.

Ildizpoyasi bilan ildizining qaynatmasi nafas yo'llari kasalligida balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Yer ostki organlaridan olingan allantoni preparati me'da va andiz bilan bir qatorda ishlatiladi. Sariq andizning yer ostki organlari tarkibida 2, 20-3, 17 % efir moyi (asosiy qismi allantolaktinlar), 2-20 % qandlar, 12 - 32 % inulin, 5, 68-13,71 % smolalar (20,4- 30,1 % efir moyi tashkil etadi) va boshqa birikmalar bor.

O'n ikki barmoq ichak yarasi kasalligini davolash uchun ishlatiladi. qora andiz preparatlari va efir moyi yallig'lanishga qarshi, antiseptik va gijja haydovchi (ayniqsa efir moyi tarkibidagi allontolakton va izoallantolakton birikmalari) ta'sirga ega. qora andiz ildizi bilan ildiz poyasi yo'talga qarshi va balg'am ko'chirish uchun ishlatiladigan yig'malar - choylar hamda Zdrenko yig'masi tarkibiga kiradi. qora andiz qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash uchun qo'llanib kelingan. Uni Abu Ali ibn Sino bo'g'im og'riganga, radikulit kasalliklariga davo qilgan, ildiz qaynatmasini balg'am ko'chiruvchi, siydik haydovchi vosita sifatida ishlatgan, ildizi bilan bargining qaynatmasiga dokani ho'llab et uzilgan joyga bog'lagan. Ildiz va ildizpoyasidan tayyorlangan qaynatma yoki damlama va ularning poroshogi hozirgi vaqtda ham xalq tabobatida balg'am ko'chiruvchi, isitmani tushiruvchi, terlatuvchi, siydik va gijja haydovchi, ishtaha ochuvchi vosita sifatida ishlatiladi. Nafas yo'llari shamollashi va yallig'lanishi, buyrak va siydik yo'llari hamda me'da kasalliklarida, gripp, bavirusil va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. qaynatmasi bilan yana qo'tir, gush (ekzema), turli yaralar va terining boshqa kasalliklari davolanadi. Xalq tabobatida andizning boshqa turlari – Sariq andiz - Devyasil krupniy —I. grandis Schrenk, Britaniya andizi (chachalbosh) — Devyasil britanskiy- I. Britanica L. va boshqalar yuqorida ko'rsatilgan kasalliklarni davolashda qora og'riqlarida 20—30 minut vanna qilinadi.

Bargida yana flavonoidlar, xromonlar, saponinlar, alkaloidlar va boshqa moddalar uchraydi. Sariq andizning hamma organlaridan grandilin, ivalin, grandin, igalin va boshqa seskviterpen laktonlar olingan.

Sariq andiz ildizi ilmiy tibbiyotda qora andiz bilan bir qatorda ishlatiladi. Uning preparatlari yana me'da va o'n ikki barmoq ichak yara kasalligi va me'da yallig'lanishida ishlatishga tavsiya etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nabiyeu M. Muxtarov M. M. Turkona davo va soda muolajalar. Ibn Sino Toshkent. 2003.
2. Hamidjon Zohidov "Shifo xazinası" I.II.III tom Toshken, Yangi asr avlodi, 2004.
3. Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" 2-kitob. Toshkent 1992 yil.
4. Madraxhimov A.S. Ibn Sino shifobaxsh o'simliklar haqida "Mehnat", Toshkent 1990 y.
5. L.M.Qurbanova, D.N.Qurbonova. //Zomin shifobaxsh o'simliklarining xususiyatlari. "Journal of Natural Sciences" №3 2021 y.154-157 b. <http://natscience.jspi.uz>
6. L.M.Qurbanova, D.N.Qurbonova. //Boymadaron (herba millefol II) yer ustki qismining tabobatda qo'llanilishi. "Journal of Natural Sciences" №2 (7) 2022 y.57-59 b.
7. L.M.Qurbanova, D.N.Qurbonova. //Yalpiz (Myata perechnaya)ning dorivor xususiyati "Journal of Natural Sciences" №2 (7) 2022 y.54-56 b.